Volume 3, Issue 1,2024

TIBBIYOT SOHASIDA KO‘RSATILAYOTGAN KOSMETOLOGIK XIZMATLARNI TARTIBGA SOLISHNING SHARTNOMAVIY ASOSLARI

Jamshid Abdulayev Djamilovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD),“Adliya a’lochisi” Email: jamshidb003fb@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada kosmetologiya genezisi, tibbiyot sohasida ko‘rsatilayotgan kosmetologik xizmatlarni tartibga solishning fuqarolik huquqiy asoslari va kosmetologik xizmat ko‘rsatishga oid shartnomaviy huquqiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va alohida jihatlari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Dunyoda qarish tendensiyasi, kosmetologiya xizmatlari, litsenziya, kosmetologiya xizmatlarining konsepsiyasi, kosmetologiya xizmatlarini tasniflash, tibbiy xizmatlarning shartnomaviy asoslari, “Donabediya triadalari”, tibbiy yordamni axborotlashtirish.

Hozir mavjud ijtmoiy aloqa vositalari (ommaviy axborot vositalari)da orqali xalq farovonligining yuksalishi va keng targ‘ibot ishlari bilan birga go‘zallik va yoshlik belgisi sifatida tanani yosh holatda saqlash asrash yoki shunday holatga keltirish sanoati og‘zaki va shartnoma asosida rijovlanmoqda. Bugun barcha mamlakatlarda kosmetologiya xizmatlaridan keng foydalaniladi. Masalan qarishni oldini olish vositasi sifatida kosmetologiya aksariyat davlatlarda yechim bo’lishi nazarda tutiladi. “Aholining qarishi tendensiyasi barcha mamlakatlarda va birinchi navbatda Evropa davlatlarida kuzatilmoqda. Bu masalada yer sharining bu qismi qat’iy birinchi o‘rinni egallaydi. Chunki keksalar va qariyalarning eng katta ulushi bo‘lgan mazkur dunyo mamlakatlari 20 tadan 18 tasi u erda joylashgan”.
Shu kabi omillar tufayli aholining katta qismi kosmetologiya xizmatlariga ehtiyoj seziladi. Barcha xizmat ko‘rsatish sohalarida asortiment turi va bajarilayotgan xizmatlar barqaror o‘sib bormoqda. Ammo mazkur tizimda faoliyat turini tartibga soluvchi tartibga solish fuqarolik qonunchiligi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini qayd etish lozim.
Qisqacha kosmetika atamasini kelib chiqishiga Avstraliyalik olim W.Harald qarashlari asosida to‘xtalsak: “Kosmetika atamasi qadimgi yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “buyurtma berish yoki bezash” degan ma’noni anglatadi, tana va go‘zallikni parvarish qilishni anglatadi. Bu inson tanasining go‘zalligini saqlash, tiklash va yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Kosmetikaning birinchi belgisi miloddan avvalgi 10.000 yilga to‘g‘ri keladi. Mezolit odamlari terini yumshatish uchun moy va kastor yog‘ini surtgan. Ular o‘simlik bo‘yoqlari bilan tatuirovkalarni bo‘yashdi. Taxminan 7000 yil avval (miloddan avvalgi 3000 yil) Misr pergamentida terini tinchlantiradi va ajinlarni kamaytirish uchun kremlardan foydalanilganligi tasvirlangan”.
Bu borada qadimgi dunyo tarixida “Qadimgi Sharqda erkaklar soch va soqollariga moy surtishgan. Ayollar tanasida ko‘z bo‘yoqlari, rouge, pudralar va malhamlardan foydalanganlar. Miloddan avvalgi 50-yillarda Kleopatra nafaqat go‘zallik, balki kosmetikadan intensiv foydalanish bilan ham mashhur edi”. Demak, kosmetika va kosmetologiya xizmatlarining ko‘rsatilishi biz o‘ylaganimizdan ham qadimiyroq.
Kosmetologiya xizmatlari umumiy tibbiy xizmat ko‘rsatish normalari bilan huquqiy tartibga solinadi. MDH mamlakatlarida sog‘liqni saqlash sohasidagi qonun hujjatlarining mukammal emasligi, asosiy normalarning umumiy ahamiyat kasb etishini inobatga olib, mazkur sohani huquqiy tartibga solish mexanizmi zarurligini anglashimiz mumkin.
Kosmetologiya xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari boshqa tibbiy xizmat turlaridan farqli ravishda ularni huquqiy tartibga solish uchun alohida yondashuv mavjud. Chunki kosmetologiya xizmatlari barcha tibbiy xizmatlar kabi nomoddiy xizmatlar toifasiga kiradi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tibbiy xizmatlar davolash va salomatlikni mustahkamlashga qaratilganligini ta’kidlashadi. Ammo kosmetologiya xizmatlari insonning tashqi qiyofasini yaxshilash uchun qilinagan tibbiy harakat ekanligini qayd etishadi. Tibbiy va kosmetologiya xizmatlarining umumiy tibbiy xususiyati har ikkalasi ham salomatlikka aloqador. Biroq tibbiy xizmatlarning vaqtida ko‘rsatilmasligi insonning vafotiga olib kelishi mumkin. Kosmetologiya xizmatlari asosan tanani yosh ko‘rinishi yoki shaxsning xusnni chiroyli qilish bilan bog‘liq hisoblanadi. Har ikki tibbiy xizmat ko‘rsatish ijrochi (tibbiy tashkilot)ning xohishidan qat’i nazar, iste’molchilarning sog‘lig‘i uchun harakat qilish mavjud. Masalaga shartnomaviy huquqiy nuqtai nazardan yondashsak, tibbiy tashkilot o‘z mijoziga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishi lozim.
Kostemologiya va boshqa tibbiy xizmatlarning belgilangan talablarga javob bermasdan bajarilishi, tibbiyot xodimlarida tegishli malaka yetishmasligi, tibbiy xizmatga murojaat qilgan shaxs (bemor) bilan to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tmasdan tibbiyot amaliyotining boshlanishi oqibatida baxtsiz hodisa yoki o‘lim holatining qayd qilinishi va boshqa ta‘sirlarni to‘liq bartaraf etib bo‘lmaydi.
Tibbiyot sohasida mutaxassis bo‘lmagan iste’molchilar kosmetologlarga murojaat qilganlarida xizmatning sifatiga ishonishadi, shuningdek, ular ko‘pincha keyingi xavf-xatarlarni anglashmaydi. Kundalik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kosmetologlarga murojaat qilingandan keyin tibbiy xizmat ko‘rsatish vaqtida sog‘lom bo‘lgan shaxsning salomatlik ko‘rsatkichlarining umrbod yo‘qotilishi va boshqa katta xavf-xatarlar kuzatiladi. Shunday holat tez–tez uchrashiga qaramay sihat-salomatligi qaytib bo‘lmas darajaga kelib qolgan kosmetik xizmat iste‘molchilari aksariyat mintaqalardagi milliy qonunchilik tibbiyot sohalarini huquqiy tartibga solinishi zaifligi tufayli aziyat chekishadi. Tibbiyotda haq evaziga xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalari singari kosmetik xizmat ko‘rsatishda ham mavjud norma ijodkorligi bilan tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlar, masalani muammo darajasiga aylantirmoqda.

Kosmetologiya sohasida xizmatlarning bir qancha mamlakatlarida sifatini tahlil qilib, mazkur sohani Rossiya Federatsiyasida maxsus tadqiq etgan tadqiqotchi Ye.A.Sholomning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Kosmetologiya sohasida xizmatlarning yangiligi tufayli ro‘yxatdan o‘tmagan va eksperimental tibbiy texnologiyalar va texnikalar tibbiyotning boshqa sohalariga qaraganda ancha tez-tez qo‘llaniladi; kosmetologiya xizmatlari ko‘pincha litsenziyaga ega bo‘lmagan tashkilotlar va tadbirkorlar, shuningdek, individual kosmetologiya xizmatlari tomonidan taqdim etiladi. Odatda sartaroshlik va go‘zallik salonlarida tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan belgilangan sanitariyaga zid sharoitlarda amalga oshiriladi”
Bundan tashqari kosmetologlarni malaka sinovidan o‘tkazish va o‘qitishga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, litsenziya olishning boshqa qonuniy talablari aniq belgilanmagan. Ahamiyatli tomoni belgilangan mavjud talablar ham amalda ko‘pincha bajarilmaydi. Demak, hududlarda mavjud vaziyat, mazkur xizmat ko‘rsatish sohasida yagona standartlarning yo‘qligi yetarlicha keskinlikni keltirib chiqarmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda mavjud ochiq manbalarda kosmetologiya xizmatlari haqida narxlar va sifat haqida quyidagi ma’lumotlar beriladi: “Toshkentdagi eng yaxshi kosmetologlar: 26 shifokor, 67 tekshirilgan sharh (o‘rtacha reyting 4,9), o‘rtacha ish tajribasi 17 yil. Kosmetolog maslahati narxi 50 000 so‘mdan 250 000 so‘mgacha (o‘rtacha narxi 128 000 so‘m)”.
E’tiborli tomoni shundaki kosmetologiya xizmatlari nafaqat fuqarolik sohasi bilan balki masalaning jinoiy huquqiy aspektlari ham mavjud.

“Go‘zallik sanoati sohasida protseduralarning yangi turlarining paydo bo‘lishi bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi va zamonaviy jamiyatda ularga bo‘lgan talab ortib borayotgani kosmetologiyani huquqiy tartibga solish masalasini dolzarb qiladi. Sohadagi faoliyat, u yoki bu

darajada, inson tanasiga ta’sir qilishni o‘z ichiga oladi va ifodalaydi. Chunki u inson tanasining integumental to‘qimalariga ta’sir qiluvchi terapevtik, diagnostika va reabilitatsiya tadbirlari majmuasidir”. Bundan tashqari aksariyat hududlarda kosmetologiya xizmatlari tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan talabga javob bermaydigan maskanlarda ko‘rsatiladi, bunday vaziyat tabiiyki o‘z-o‘zidan masalaga tegishli huquqiy baho berishlikni, huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, kosmetologiya xizmatlari iste’molchilarining hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash omilidan kelib chiqib, mavjud norma ijodkorligini yaratish lozim. Demak mazkur faoliyatni to‘liq huquqiy tartibga solish uchun asos sifatida haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalarining asosiy shartlari va ta‘riflari, talablarini ishlab chiqish kosmetologiya xizmatlarini ko‘rsatish amaliyotida tadbiq qilish maqsadga muvofiq.

Tibbiyot sohasida ko‘rsatilayotgan kosmetologik xizmatlarni tartibga solishning shartnomaviy asoslarini tahlil qilish uchun quyidagi masalalarni tahlil qilish kerak: kosmetologiya xizmatlarining konsepsiyasi va huquqiy mohiyatini tahlil qilish; kosmetologiya xizmatlarini tasniflash; kosmegologik xizmatlarni tegishli boshqa tibbiy xizmatlardan ajratib turadigan belgilarni aniqlash; kosmetologiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi shaxslarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish kabi bir qancha aniqlashtirilishi muhim xususiyatlarni jihatlarni tadqiq etish lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak, Rossiya Federatsiyaning joriy qonunchiligida tibbiyot sohasida ko‘rsatilayotgan kosmetologik xizmatlarni tartibga solishning umumiy asoslari qayd qilingan: “46-bandning 1-qismi asosida. 12-modda, 4-qism. 2011 yil 4 maydagi 99-FZ-sonli “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida” Federal qonunining 9-moddasida tibbiy faoliyat (shu jumladan kosmetologiya xizmatlarini ko'rsatish) litsenziyalanishi kerak. Litsenziya cheklanmagan muddatga beriladi”. Biroq kosmetologiyaga oid barcha masalalarni mazkur norma bilan tartibga solishning imkoniyati yo‘q.

Mazkur sohaga oid rivojlangan mamlakatlar xorijiy mamlakatlardan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya tajribasida ilmiy jamoatchilikda quyidagi fikrlarni keltirishni o ‘rinli deb hisoblaymiz: “Kosmetik aralashuvlar va jarrohlik amaliyotlari jadal rivojlanayotgan biznesdir. Buyuk Britaniyada 2010 yilda 2,3 milliard funt sterlingga teng bo‘lgan va 2015 yilga kelib 3,6 milliard funt sterlingga ko‘tarilishi taxmin qilinmoqda. Jarrohlik usullari masalan, yuzni ko‘tarish, qorin bo‘shlig‘i yoki jarrohlik bo‘lmagan – odatda dermal plomba moddalari, botox® yoki lazer yoki kuchli impulsli yorug‘lik (IPL) dan foydalanish va boshqalar”. Mazkur statistika raqamlari yana bir marta sohani huquqiy tartibga solish lozim ekanligini isbotlaydi.

Negaki, Markaziy Osiyoda bugungi kunda muhim hisoblangan va urfga aylanayotgan yuz va tana bilan bog‘liq jarrohlik amaliyotlari allaqachon rivojlangan mamlakatlarda to‘lqin sifatida kun tartibiga chiqib, masalaning huquqiy ta’sir choralari ishlab chiqilganligini Professor Sir Bruce Keogh KBE rahbarligida Buyuk Britaniya “Ko‘rib chiqish qo‘mitasi” tomonidan tayyorlangan “Kosmetik aralashuvlarni tartibga solish Yakuniy hisoboti” tasdiqlaydi.

Masalaga Yevropa tajribasi nuqtai nazaridan yondashsak, Yevropa Ittifoqida “Kosmetik mahsulotlar va xizmatlar bozorga chiqarilishidan oldin Yevropa Ittifoqi (EI) va milliy parlamentlarning bir qator qonuniy talablariga javob berishi kerak. Evropada kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotish Kosmetika qoidalari (EC) № 1223/2009 bilan tartibga solinadi.

Yana bir rivojlangan davlat Germaniyada Kosmetika to‘g‘risidagi qaror (Kosmetik Verordnung) va 2005 yildagi Oziq-ovqat va ozuqa kodeksi (LFGB) kosmetika mahsulotlari savdosini tartibga soladi (§2 (5), § 26-29) va boshqa shu turdagi kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha EC direktivalari mavjud.

Tibbiyot sohasidagi tibbiy xizmatlarning shartnomaviy asoslarini tahlil qilib, tadqiqotchilar M.A.Pozdnyankova, O.N.Krasilnikova, Ye.Ye.Jilsovalarning fikricha: “Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kosmetologik yordamni yanada rivojlantirish uchun baza, xodimlar va bemorlar kerak, shuningdek, kelgusi o‘nlab yillar davomida o‘ylangan tibbiy yordamni axborotlashtirish va tashkil etish kerak”.
Bugungi kunda xizmat ko‘rsatishning sifati yaxshilash maqsadida ko‘plab o‘zgarishlar qilinishiga qaramay sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda bir qancha muammolar to ‘laligicha bartaraf etilmaganligi hamda bugungi kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Bu masalada tadqiqotchi A.Donabedian uch asosiy muammoli jihatni qayd etadi: “tibbiy yordam sifatini ta’minlash bo‘yicha ishning asosiy yo’nalishlari: tuzilmasini, jarayonini takomillashtirish va natija. “Donabediya triadalari” bu – tuzilish, jarayon va natija o‘rtasidagi munosabat deyiladi”. Bundan tashqari “Donabediya triadalari” masalasida tadqiqotchi Yu.V.Avdiyeva o‘z fikrlarini bayon etib quyidagilarni alohida ta’kidlaydi:“1.Tegishli qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yaratish, tibbiy yordam sifatini ta’minlash mexanizmlarini tartibga solish; 2. Tuzilmalar va resurslarni (inson, moliyaviy, moddiy) qonunchilik bazasiga muvofiqlashtirish va axborot); 3. Tegishli standartlarni yaratish va tibbiy texnologiyalarning joriy etilishini yanada samarali nazorat qilish”. Yuqorida bayon qilingan tibbiy xizmatlarni huquqiy tartibga solish masalasida har ikkala tadqiqotchilarning fikrlariga qo‘shilgan holda haq evaziga kosmetologiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasining muhim va boshqa shartlarini aniqlash doirasida tadqiq etish lozim deb hisoblaymiz.

Tibbiyot sohasida ko‘rsatilayotgan kosmetologik xizmatlarni tartibga solishning shartnomaviy asoslarini ilmiy-nazariy tahlili natijasida quyidagi xulosalarga keldik:
birinchidan, tibbiyot sohasi tarkibiga kiruvchi kosmetologiya xizmatlarini ko‘rsatish sohasida xizmat davrida yetkazilgan zararni qoplash va zararni qoplash muammolari yuzaga kelganda fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi shartlarini ishlab chiqish lozim.
ikkinchidan, haq evaziga kosmetologiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasining muhim va boshqa shartlarini shakllantirish va amaliyotga joriy qilish kerak.
uchinchidan, haq evaziga xizmat ko‘rsatish doirasida kosmetologiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma bo‘yicha tomonlarning huquq va majburiyatlarini o‘rganish va mazkur tahlillar natijasini amaldagi norma ijodkorligida aks ettirish maqsadga muvofiq.
to‘rtinchidan, tibbiyot sohasi haq evaziga kosmetologiya xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlarida mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini bartaraf etish va amaliyotga joriy qilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stepanovs, J. (1999). Skin Saver Remedies. Australia: Harald W. Tietze Publishing
2. Professor Sir Bruce Keogh KBE. Ms Trish Halpin, Dr Rosemary Leonard, Dr Andrew Vallance-Owen, Prof. Sir Ian Kennedy, Mrs Vivienne Parry, Mr Simon Withey, Ms Catherine Kydd, Prof. Shirley Pearce. Review of the Regulation of Cosmetic Interventions Final Report Prepared by the Review Committee.
https://assets.publishing.service.gov.uk/media/5a7a25dee5274a319e77831c/Review_of_the_Regulation_of_Cosmetic_Interventions.pdf
3. REGULATION (EC) No 1223/2009 OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL of 30 November 2009 on cosmetic products. http://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:L:2009:342:
0059:0209:EN:PDF (accessed 17 November 2018). http://eur-lex.europa.eu/
4.Lebensmittel-, Bedarfsgegenstände- und Futtermittelgesetzbuch (Lebensmittelund Futtermittelgesetzbuch - LFGB), 2005. http://www.gesetze-im-internet .de/lfgb (accessed 17 November 2018)
5. А.А.Шабунова, В.Н. Барсуков. Тенденции демографического старения населения Российской Федерации и пути их преодоления // Проблемы развития территории. 2015. №1 (75). С. 76-87
6. А.В.Машкова Уголовно-правовой аспект оказания косметологических услуг // Вестник ВГУ. Серия: Право. 2022. №3 (50). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovno-pravovoy-aspekt-okazaniya-kosmetologicheskih-uslug
7. Шолом Елена Анатольевна. Договор возмездного оказания косметологических услуг. 12.00.03 гражданское право, предпринимательское право, семейное право, международное частное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Саратов2010. С-4.
8. Cosmetic Creams: Development, Manufacture and Marketing of Effective Skin Care Products, First Edition. Wilfried Rähse. © 2020 Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA. Published 2020 by Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA
9. М.А.Позднякова, О.Н.Красильникова, Е.Е. Жильцова. Медико-социальные и юридические аспекты косметологической помощи // Наука молодых – Eruditio Juvenium. 2017. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mediko-sotsialnye-i-yuridicheskie-aspekty-kosmetologicheskoy-pomoschi
10. В.Г.Дьяченко. Качество в современной медицине. Хабаровск: Издательство ГОУ ВПО ДВГМУ, 2007. 490 с
11. Ю.В.Авдеева. Управление качеством медицинской помощи // Медицина и здравоохранение: материалы III междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2015 г.). Казань: Бук, 2015. С. 81-84
12. Verordnung über kosmetische Mittel (Kosmetik-Verordnung), KosmetikV 2014. https://www.gesetze-im-internet.de/bundesrecht/kosmetikv_2014/ gesamt.pdf (accessed 17 November 2018)
13. https://clinics.uz/uzb/catalog/medical-centers/cosmetology
14.https://assets.publishing.service.gov.uk/media/5a7a25dee5274a319e77831c/Review_of_the_Regulation_of_Cosmetic_Interventions.pdf
15. https://dzen.ru/a/ZIjS9lxstWJkEdiH

16. LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:L:2009:342:0059:0209:DE:PDF (accessed 17 November 2018)

